

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA-MAXSUS KASB HUNAR
TA'LIMI VA OLIV O'QUV MUASSASALARI HUZURIDA(QOSHIDA)GI
AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIGA TA'LIM JARAYONINING
DOLZARB MASALALARI (TIZES)**

Shahnoza Abdullayeva Nurmatoevna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
akademik litseyi o'qituvchisi, tadqiqotchi
Email: shahnoza210707@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida o'rta-maxsus kasb hunar ta'lifi va oliv o'quv muassasalaridagi akademik litsey o'quvchilariga ta'lim jarayonining dolzarb masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'rta-maxsus kasb hunar ta'lifi, oliv o'quv muassasalarining akademik litseylari, ta'limning mazmuni va shakli, ta'limning maqsadi va vazifalari, malakali kadrlar.

Jahonda ta'limning mazmuniga alohida e'tibor qaratish ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo mamlakatlarida ayni paytda ta'lim tizimi qanday shakl va usulda olib borilishidan qat'iy nazar yagona maqsad sifatli va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan har tomonlama yetuk kadrlarni yetkazib berish uchun xizmat qilishi barchaga ayon haqiqat hisoblanadi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasida o'rta-maxsus kasb hunar ta'lifi va oliv o'quv muassasalaridagi akademik litsey o'quvchilariga ta'lim jarayonining dolzarb masalalarini tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimi taraqqiyotida sezilarli tarixiy yo'l bosib o'tilgan.

O'zbekistonda Respublikasida ta'lim O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risidagi qonun"¹ va "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910² qarori asosida amalga oshiriladi. Respublikamizda akademik litseylar va kasb-hunar maktablariga qabul umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfini tugatgandan keyin, kollejlarga esa 11-sinfni tugatgach qabul qilinadi. Akademik litseylarda ta'lim jarayoni biron-bir mutaxasislikka yo'naltirilgan bo'lib chuqurlashtirilgan bilim beriladi. Kasb-hunar maktablarida ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan bo'lib kasb o'rganishga moyilliги bor o'quvchilar jalb qilinadi. Kollejlarda 11-sinflarni tugatgan o'quvchilar ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha o'qitiladi va kasbga yo'naltiriladi.

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son

² Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/22/214/0791-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son

Akademik litseylarda mutaxassislik bo'yicha yo'nalishlar mavjud bo'lganligi uchun chuqurlashtirilgan dastur asosida o'tiladi. Masalan, aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, yuristprudensiya va xorijiy ta'lim yo'nalishlaridan iborat. Ushbu yo'nalishlarida umumta'lim yo'nalishlari bilan birga ixtisoslik fanlari o'tiladi. Masalan, barcha yo'nalishlarda ijtimoiy fanlar: tarix, huquq, tarbiya fanlari o'qitiladi. Kasb-hunar maktablarida umumta'lim fanlardan tashqari kasbga yo'naltirilgan fanlar o'tiladi. Jumladan; duradgorlik, zargarlik, tikuvchilik va boshqalar. Kollejlar ma'lum bir yo'nalishda bo'lganligi uchun mutaxassislik fanlar o'tiladi.

Respublikamiz hududida 69 ta akademik litseylar va bir qancha tehnikumlar mavjud. Ularning har biri ma'lum bir sohada yunaltirilgan. Mazmun va sifat jihatidan akademik litseylar va tehnikumlar bugun ancha ijobiy o'zgarishlar qilinmoqda. Lekin shu bilan birga bir qancha kamchiliklar ham uchraydi. Bunday kamchiliklar sirasiga ta'limning sifati masalasi, shuningdek ta'lim maskanlaridagi malakali pedagogik kadrlarning asosiy qismini xususiy sektorga o'tib ketishi, davlat ta'lim tizimida esa ta'limning shakliga xos bo'lgan libos, tashqi ko'rinish va boshqalar bilan bog'liq asosiy mazmunini kasb etishi kabilarga e'tibor qaratilishi aytilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida mazmuni va sifatini vujudga keltirish bugungi kun ta'lim-tarbiya muassasalari va pedagog xodimlar oldida turgan asosiy masala hisoblanadi. Referendum asosida qabul qilingan Konstitutsiya hamda "Ta'lim tog'risida"gi qonun³ ning qabul qilinishi bilan jamiyatimizda mavjud ammo tartibga solinmagan bir qator ta'limning mazmuni bilan bog'liq munosabatlarni qonuniy tartibga solinishi nazarda tutilmoqda.

Birinchidan, ta'limning tarkibi, sifatiga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

Ikkinchidan, respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish uchun yoshlarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini nazarda tutish kerak.

³ <https://lex.uz/docs/-5013007>